

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMLI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

D.A. NAZILOV, I.V. DMITRIYEVA, N.X. XADJIBAYEVA

KOMPOZITSIYA ASOSLARI

BADIIY KOMPOZITSIYA ASOSLARI

DARSLIK

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2009

Dizaynerlar amaliy ishining muhim o'ziga xos maqsadlaridan biri loyihalananayotgan buyum tashqi qiyofasida ularning vazifasi, mutanosibligi, badiiy-estetik idrok-maqsadga muvofiqligini mujassamlashtirishdir.

«Kompozitsiya asoslari» fanining asosiy maqsadi badiiy shakl yaratish va uni amaliyotda qo'llash nazariyasi bo'yicha dunyo tajribasini ijodiy o'zlashtirishdan iborat bo'lgan predmetlar majmuini tashkil qiladi.

O'quv qo'llanmaga uch bo'lim kiradi: tekislikdagi kompozitsiya, hajmiy kompozitsiya va kombinator kompozitsiya. Har bir bo'lim nazariy va amaliy qismlardan iborat.

«Kompozitsiya asoslari» fani dizayn mutaxassisligi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

A. S. O'ROLOV,

Arxitektura fanlari doktori, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

Taqrizchilar:

Q. MUHAMADJONOV,

Toshkent Milliy rassomlik va dizayn instituti
Dizayn kafedrası mudiri, professor

N. MIRZAHOSHIMOVA,

Toshkent Davlat Texnika universiteti,
Dizayn kafedrası katta o'qituvchisi

ISBN 978-9943-08-441-4

© D.A. Nazilov, I.V. Dmitriyeva, N.X. Xadjibayeva, «Kompozitsiya asoslari» (*Badiiy kompozitsiya asoslari*).
«Yangi asr avlodi», 2009-yil.

SO'ZBOSHI

«Kompozitsiya asoslari» fani ijodiy yo'nalishdagi arxitektura, rassomchilik va dizayn oliy o'quv yurtlarida fan sifatida o'tiladi. Toshkent Davlat Texnika universitetining «Dizayn» kafedrasida o'quv rejasiga binoan «Kompozitsiya asoslari» fani 190 soat hajmida belgilangan.

Fanning maqsadi asosan kompozitsiya qonun-qoidalarini, vositalarini puxta egallash va ijodda samarali qo'llashdan iboratdir.

Kompozitsiya asoslari o'ziga xos qonun va vositalarni o'z ichiga oladi. Dizayn mahsulotlarida – xoh avtomobilsozlikda, xoh imorat interyerida, xoh sanoat mahsulotida bo'lsin – bularning barchasida go'zallikka, qulaylikka erishishning birdan-bir yo'li kompozitsiya qonun va vositalariga amal qilishdadir.

ToshDTUning Dizayn kafedrasida «Kompozitsiya asoslari» faniga oid nazariy va amaliy qismlar birgalikda olib boriladi. Talaba har bir mavzu uchun amaliy vazifa bajaradi. Nazariy qism bilan amaliy mashg'ulotning birgalikda olib borilishi talaba uchun fanning mohiyatini tushunishda, uni yaxshi o'zlashtirishda, olgan bilimni amalda qo'llay olishda yetarli darajada bilim va ko'nikma hosil qiladi.

Shuningdek, dizayn yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun «Kompozitsiya asoslari» fanining o'tilishi ularning «Badiiy loyiha», «Badiiy konstruksiya» fanlaridan bajaradigan kurs loyihalarini va malakaviy bitiruv ishlarini bajarishlarida katta yordam ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur fanning dizayn, rassomchilik va arxitektura yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarining keng qamrovli, iste'dodli mutaxassis bo'lib yetishishlarida ahamiyati katta.

Ta'kidlash joizki, dizayn yo'nalishida mutaxassis tayyorlayotgan oliygohlar uchun «Kompozitsiya asoslari» fanidan hanuzgacha o'zbek tilidagi darsliklarning yo'qligi ajablanarli hol, albatta. Lekin, hozirgi kunda mustaqilligimiz sharofati bilan bu muammo o'z yechimini topmoqda.

1999-yilda Toshkent Arxitektura va qurilish instituti professori T.Soyibovning «Kompozitsiya» nomli o'quv qo'llanmasi chop etildi. Mazkur o'quv qo'llanmada ko'proq rassomchilik va me'morchilikdagi kompozitsiyaning roli va qonun-qoidalari haqida ma'lumotlar berilgan.

2003-yilda arxitektura mutaxassisligi bo'yicha magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalar uchun professor A.O'rolovning «Me'moriy shakllarni uyg'unlashtirish va bezash» fanidan yozgan darsligi chop etildi.

Shuningdek, 2005-yilda Samarqand Davlat Arxitektura va qurilish institutining o'qituvchi olimlari A.S. O'rolov, A.Q. Rahimov, B.A.Saidovalar tomonidan «Arxitekturaviy kompozitsiya va loyihalash asoslari» nomli o'quv qo'llanma chop etildi. Qo'llanma katta hajmda bo'lib, 215 ta rasmni o'z ichiga olgan bo'lib, u asosan arxitektura yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Rangshunoslik fani bo'yicha ham 2002-yilda Eson Muhammadiyevning «Rangshunoslik» nomli o'quv qo'llanmasi chop etildi. Mazkur qo'llanmada rangning fizik asoslari, xususiyatlari, rang ta'limotining fiziologik asoslari, ranglarning inson ruhiyatiga ta'siri kabi qoidalari haqida qimmatli ma'lumot va tushunchalar berilgan.

Mazkur qo'llanma rassomlik, arxitektura va dizayn yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun nazariy bilim berishga qodir.

Shuningdek, rangshunoslik fani bo'yicha Rustam Xudoyberdiyevning kasb-hunar kollejlari uchun «Rangshunoslik asoslari» nomli o'quv qo'llanmasi 2005-yilda chop etildi.

Tasviriy san'at yo'nalishidagi maxsus litsey, maktab, tasviriy san'at to'garaklari uchun professor A.Egamovning «Kompozitsiya asoslari» darsligi 2005-yilda «San'at» jurnali nashriyotida chop etildi. Mazkur darslik badiiy kartina yaratishda kompozitsiyaning qo'llanilishi va uning vazifalarini yoritishga bag'ishlangan. Darslik ikki yuzga yaqin rangli tasvir bilan boyitilgan.

Dizayn yo'nalishiga bag'ishlangan mazkur «Kompozitsiya asoslari» darsligi Toshkent Davlat Texnika universiteti o'qituvchilari tomonidan yozildi. Darslik tekislikdagi kompozitsiya, hajmiy kompozitsiya va kombinatorik kompozitsiya, rangli kompozitsiya bo'limlaridan iborat. Nazariy qismlar oxirida amaliy vazifalarni bajarish uslubi bayon etilgan. Darslikning diqqatga sazovor tomoni shundaki, unga o'qish jarayonida, mavzularga oid amaliy mashg'ulotlarning kafedra o'qituvchilari rahbarligida talabalar tomonidan bajarilgan xarakterli namunalar ham kiritildi.

Darslik qo'lyozmasi bilan yaqindan tanishgan va o'z fikr mulohazalari bilan o'rtoqlashgan professor A.O'rolovga, professor Q.Muhamadjonovga, ToshDTU Dizayn kafedrasida katta o'qituvchisi N. Mirzahoshimovaga va kurs loyihalarini suratga olishga yordamlashgan shu kafedra magistratura talabasi A.Sxinaslarga mualliflar o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

MUQADDIMA

Kompozitsiya – qonuniy tashkil qilingan organizm, uning hamma qismlari mustahkam aloqada va o‘zaro bog‘liqlikda. Bu aloqa va o‘zaro bog‘liqlik xususiyati rassomning g‘oyaviy fikri bilan belgilanadi. Fikr mohiyatiga xos bo‘lgan konstruktiv g‘oya kompozitsiyaning amaliy asosini beradi.

Ye.A.Kibrik

Tabiatning go‘zal manzarali bo‘lagiga ko‘zimiz tushganda undagi elementlarning bir-biri bilan uyg‘unligi topilganligidan nihoyatda zavqlanamiz. Bu albatta, tabiat in‘omi.

Kompozitsiya inson ijodining barcha turlarida ham keng qo‘llaniladi. Shuningdek, u she‘riyatda, san‘atning barcha turlarida ham mavjud. Kompozitsiya rassomchilik asari, me‘moriy obida, majmua, dizayn san‘atiga xos sanoat buyumi yaratishda keng qo‘llaniladi. Ushbu fan ijodiy yo‘nalishdagi mutaxassislar uchun suv va havodek zarur. Ijodkor asarining muvaffaqiyati uning kompozitsiyasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o‘z asarlarida kompozitsiya jihatidan yaxshi natijalarga erishgan ijodkorni, u xoh rassom bo‘lsin, xoh me‘mor bo‘lsin, o‘z sohasining kompozitori deb atashgan.

Kompozitsiya o‘ziga xos qonun va vositalardan tashkil topgan. Uning asosiy qonunlariga *muvozanat* va *umumiylik* kiradi. Muvozanat simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarda turlicha namoyon bo‘ladi. Muvozanatga elementlar miqdori, shakli, ularning muhit bilan o‘zaro munosabati, rangi, fakturaviy yechimining uyg‘unligi bilan erishiladi.

Asimmetrik kompozitsiya rassomchilikda asosiy personajlar guruhining manzara yoki fazoviy muhit bilan, me‘morchilikda hajmni fazo bilan birlashtirish yoki fazoni o‘ziga bo‘ysundirish imkonini beradi.

Simmetrik va asimmetrik kompozitsiyaning birini ikkinchisidan ifodalibroq, deb bo‘lmaydi. Ko‘pgina rassomlar va me‘morlarning mashhur asarlarida asimmetrik kompozitsiya qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz.

Kompozitsiya *kategoriyalariga* tektonika – buyum shaklini tashkil qilgan xomashyo konstruksiyasi va shaklning mohiyati hamda shakl bilan fazo munosabatlari; *xususiyati va sifatiga* mahsulot shaklining garmonik yaxlitligi, buyum elementlarining o‘zaro bir-biriga bo‘ysunishi, muvozanati, dinamikligi, statikligi hamda yaxlit

shakl yaratishda barcha elementlarning bir xil yondashishi kiradi.

Rassomchilik, arxitektura, dizaynerlik asarlarida kompozitsiya yaratish uchun *proporsiya*, *nyuans*, *ritm*, *masshtab* kabi asosiy vositalar qo‘llaniladi. Mazkur vositalar arxitekturada va dizayn buyumlarida shaklga badiiy obraz beradi. Rassom asarida ham personajlar orasidagi mutanosiblikni muvofiqlashtiradi, uzoq va yaqinni o‘zaro birlashtiradi, soya va o‘ta yorug‘likni uyg‘unlashtirib aks ettirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kompozitsiyaning *frontal*, *hajmiy* va *chuqurlashgan-fazoviy* kabi turlari san‘at asarining barcha turlarida keng qo‘llaniladi. Xususan, arxitektura va haykaltaroshlik san‘atida.

Frontal kompozitsiyada asar mustaqilligiga erishishga harakat qilinadi. Uni yaratishda ijodiy izlanish ma‘lum chegara ichidagi yuzada olib boriladi.

Hajmiy kompozitsiyada uch o‘lcham (uyg‘unligi, eni va balandligi) ichida ijodiy izlanish olib boriladi. Unda kompozitsiyaning barcha vositalaridan unumli foydalaniladi. Xususan, me‘moriy obidaning fazo va muhit bilan o‘zaro aloqasini yaxshilashda plastika, kolorit, faktura, hajm og‘irligi, ma‘no va g‘oyaning ahamiyati katta.

Ta‘kidlash joizki, hajmiy kompozitsiyada badiiy plastik prinsiplar o‘zgarib turadi, yangi stillar yuzaga keladi, qo‘llaniladigan xomashyolar o‘zgaradi, ularni qo‘llash usullari o‘zgaradi, lekin uyg‘unlik va go‘zallik yaratuvchi kompozitsiya qonunlari o‘zgarmaydi.

Chuqurlashgan-fazoviy kompozitsiya yaratishda uyg‘unlik qonunlari: *muvozanat qonuni*, *birlik qonuni* va *bir-biriga bo‘ysunish qonuni* hamda kontrast, ritm, nyuans, o‘xshashlik, proporsiya va masshtab kabi uyg‘unlik vositalaridan foydalaniladi. Chuqurlashgan-fazoviy kompozitsiya rassomchilikda, haykaltaroshlikda ham keng qo‘llaniladi. Me‘morchilikda yuqoridagi qonun va vositalarning birontasiga amal qilinmasa, bunday

kompozitsiya, birinchidan, mukammal badiiy asar darajasiga yetmaydi. Ansamblning umumiy kompozitsiyasiga putur yetkazadi. Asosan uning funksiya jihatidan qulayligi yo'qoladi.

Fazoviy kompozitsiya yaratishda fakturaning ahamiyati katta. Faktura shakllarning umumiy ko'rinishi, ranglarning so'niq-ravshanligi darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, shakl yuzasiga rangni yutadigan yoki kun og'ishi bilan yorug'likni yutadigan, yoki qaytaradigan xususiyatga ega faktura berib, uning ko'zga tashlanishini kamaytirish yoki uning og'ir-yengilligini kuchaytirish mumkin. Bu holda imorat, buyum kompozitsiyasida nazarda tutilgan asosiy shakl emas, boshqa shaklning dominantlikka da'vo qilishiga imkon yaratish mumkin. Grafik dizaynda ham shu holat seziladi.

Kombinatorik shakl yaratish – birxillashtirilgan va bir necha marta takrorlangan elementlarni turli fazoviy kombinatsiyada joylashtirish va birlashtirish yo'li bilan murakkab shakllar hosil qilishdir. Kombinatorikaning shakl hosil qiluvchi parametrlari elementlar geometriyasi, o'lchamlari, modullari, simmetriyasi, rangi, relyefi, bezagi, xomashyosi va shakllarning o'zgaruvchanligidan iboratdir.

«Rangli kompozitsiya» dizayn talabalari va mutaxassislari uchun zarur fan hisoblanadi. Ularning ijod mahsuli darajasi to'g'ri rang tanlash bilan belgilanadi. Shuning uchun mazkur darslikning uchinchi bobi «Rangli kompozitsiya» faniga bag'ishlangan.

Rang inson idrokining murakkab jarayonini tashkil etadi. Tabiat va atrof-muhitimiz o'zining rang-barangligi bilan kishini hayratda qoldiradi, unga zavq bag'ishlaydi. Inson o'zi sevgan rangli muhitda bo'lgisi keladi. Bir so'z bilan aytganda, inson hayoti doimo rang bilan hamohang bo'lgan.

Rang qo'llash yo'li bilan issiq yoki sovuq, aktivlik yoki passivlik, yaqin yoki uzoq, balandlik-pastlik, ho'l yoki quruqlik, og'ir-yengil, turg'unlik (statik) yoki harakatchanlik (dinamik), jo'shqinlik yoki xotirjamlik kabi ta'sir (emotsiya) holatlarini bera oladigan muhit yaratish mumkin.

Ranglar asosan ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga ochdan to'qqacha bo'lgan – oq, qora va barcha kulrang (neytral) ranglar kiradi. Ikkinchi guruhga barcha qizil, to'q sariq, sariq, yashil, moviy ko'k, binafsha, qirmizi ranglar kiradi. Birinchi guruh ranglari *axromatik*, ikkinchi guruh *xromatik* deb yuritiladi.

Toza ranglar rang spektorining asosini tashkil qiladi. Ranglar boy politrasini, ya'ni gammasini xromatik ranglardan qizil, sariq, ko'k, axromatik ranglardan qora va oq ranglar tashkil qiladi.

Shuningdek, ranglar «sovuq» va «iliq» mijoziy guruhlarga bo'linadi. Masalan, qizil rang iliq ranglar, binafsharang sovuq ranglar guruhiga kiradi. Ranglar o'zgarishi bilan ilqlik ham kamayib yoki ko'payib boradi. Masalan, to'q sariq rang malina rangga nisbatan, sovuq ranglar guruhiga kiruvchi binafsharang ko'k rangga nisbatan ilqiroq tus oladi. Kishi ko'z o'ngida uzoqlik va yaqinlik hissiyotini ham ranglar orqali belgilash mumkin. Masalan, qizil, to'q sariq, sariq kabi iliq mijozli ranglarga bo'yalgan yuza bizga sovuq mijozga kiruvchi yashil, ko'k, binafsharanglarga bo'yalgan yuzaga nisbatan yaqin ko'rinadi.

Shu o'rinda Samarqandda ilk o'rta asrlarga oid Afrosiyob shohlar saroyi interyerida ishlangan rangli devoriy suratlarga murojaat qilamiz. Mazkur obidada ham boshqa obidalardagidek devor yuzasi mahalliy ganch bilan pardozlangan. U devorga sarg'ishroq tus berib, unga issiqlik bag'ishlagan. Ganch yuzali devor ranglarning boy, vazmin vaznga ega bo'lishini ta'minlagan, ya'ni iliq mijoziy ranglarning devor mag'ziga singib, bosiqroq va gamma jihatidan boy bo'lishiga olib kelgan. Shuningdek, tasvirlardagi ranglar yorqinlik jihatidan bir-biridan keskin ajralmagan. Ular yaxlit bir gammani tashkil qiladi. Shuning uchun saroy devorlaridagi mahobatli tasvirlar o'zining me'daga tegmaydigan darajada mayinligi, ilqligi va mutanosibligi bilan kishida yoqimli taassurot qoldirgan.

Ranglar mijozi (iliq, sovuq) kishi tabiatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iliq ranglar (qizil, to'q sariq, olov va quyosh ranglari) kishi tomonidan ko'tarinki ruh bilan idrok qilinadi. Sovuq ranglar (yashil, ko'k) kishida kenglik, xotirjamlik holati taassurotini tug'diradi.

Rangning boshqa ranglar bilan yonma-yon turishi tufayli yuzaga keladigan rang o'zgarishlari fanda *rang kontrasti* deb yuritiladi. Kontrastning ikki xili ko'zga yaqqol tashlanadi: *yorqin kontrast* va *xromatik kontrast*. Yorqin kontrastning qoidalari quyidagicha xarakterlanadi: yorug' zaminda (fonda) to'q rang yanada to'qlashdi, to'q zaminda och rang yanada yorishadi.

Qo'shni xromatik ranglar ta'sirida rang tusining yoki rang to'yinganligining o'zgarishiga xromatik kontrast deyiladi. Xromatik kontrastda kulrang turli xromatik rang zaminlarda ishlansa, u turlicha